



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2024 - yil yanvar- aprel oyida)


Dastlabki, ma'lumotlar bo'yicha 2024 - yilning yanvar-aprel oylarida shahar korxonalarini tomonidan 42,8 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 112,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (73,8 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,6 trln so'mni tashkil etdi.



*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 10,3% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 14,7 % ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 21,5 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 14,7 % ga o'sish kuzatildi.


\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar - aprel oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,5 trln soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 21,5 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-aprel oyida, % da)



### Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar - aprel	2024-yil yanvar - aprel	Farqi +/-
Neft, ming t.	226,1	206,6	-19,5
Tabiiy gaz, mln kub.m.	11 100,7	10 717,8	-382,9
Gaz kondensati, ming t.	225,5	246,9	21,4
Chaqiq tosh ming t.	31,2	75,9	44,7
Shagʻal t.	-	-	-

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2024-yilning yanvar - aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,6 trln soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 73,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (2024- yil yanvar- aprel oyi, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2023-yilning yanvar-aprel –oyida – (8,1%), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,2 % (23,3%), o'rta-quyi texnologiyali – 31,4 % (28,7%) va quyi texnologiyalisi – 40,9 % (39,9%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 25,2 % (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,5 % (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 17,2 % (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 115,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9% (2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4% (2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 %) ni tashkil etdi




## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2024-yilning yanvar- aprel oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2388,7 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (55,8 % ga oshgan), 14221 tonna paxatadan yigirilgan ip (25,8 % ga oshgan), 711,7 ming dona Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar (4,5 martaga oshgan) va hamda 9388,0 tonna Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar (45,5 %) ishlab chiqarilishi kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


#### Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar




#### Margarin va yormalar




#### Yumshoq bug'doy va spelta uni



#### Pivo




#### Aroq




#### Uzum vinosi



#### Tamaki mahsulotlari



#### Paxtadan yigirilgan ip



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2023-yil yanvar- aprel</b>	<b>2024-yil yanvar- fevral</b>	<b>Farqi +/-</b>
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna.</b>	49,5	23,6	-25,9
<b>Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.</b>	11,3	14,2	2,9
<b>Margarin va yormalar tonna.</b>	420,5	0,0	-420,5
<b>Pivo – mln litr</b>	22,0	26,5	-4,5
<b>Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona</b>	175,5	136,9	-38,6
<b>Tamaki mahsulotlari, mln dona</b>	373,3	1 334,6	961,3
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>	4867,0	4947,0	80,0




## Metallurgiya sanoati

(2024- yil yanvar- aprel oyida)



**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida metallurgiya sanoati ulushi 15,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 14,2% ga

ko'paygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar- aprel oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 17,2 % ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 115,2 va ishlab chiqarish hajmi 5 420,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish


(yanvar- aprel oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 33,8% ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar aprel oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 141,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 450,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
**% da**




## Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- aprel oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 7,7 % ga kamaygan bo'lsa, 2024-yilning yanvar- aprel oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4024,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oyida)

**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,4 % ga kamaygan bo'lsa,

2024-yilning yanvar-aprel oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3622,3 mlrd so'mni tashkil etdi.


## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oyida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 84,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-aprel oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,9 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 540,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

FHI  
% da




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar- aprel oyida)



FHI  
% da



2023-yilning yanvar-aprel oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 125,6% ni tashkil etgan bo'lsa,

2024- yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 95,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 582,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar- aprel oyida)

2023-yilning yanvar-aprel oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 5,5 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 999,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar- aprel oyida)



2023-yilning yanvar-aprel oyi yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 77,6 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 93,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (yanvar- aprel oyida)




2023-yilning yanvar-aprel oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 0,9 % ga kamaygan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 117,5 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 1 890,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (yanvar- aprel oyida)

2023-yilning yanvar-aprel oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni, fizik hajm indeksi 100,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 336,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar- aprel oyida

trln.  
so'm



FHI  
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,2 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,6 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-aprel oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,7 % ga oshgani kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar- aprel oyida, % da)

2023- y.



2024- y.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	184,3	1288,2	1103,9
Issqlik energiyasi, ming gkal	4501,1	4460,6	-40,5
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	323,2	538,3	215,1

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(yanvar-aprel oyida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,476 trln so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-aprel oyida, % da)



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	59,7	121,4	61,7
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	114,7	80,1	-34,6
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	113,8	204,2	90,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 26,4 % ga , oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,0 martaga, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 1,7 martaga o'sish kuzatildi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonolari**  
*(2024-yil 1- may holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,3 mingta sanoat korxonolari faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-aprel oyida Toshkent shahrida 513 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*